

BYUDJET TASHKILOTLARIDA MOLİYAVIY NATIJALAR HISOBİ

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

sh.mamayusupova@tsue.uz

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8133490>

ARTICLE INFO

Received: 29th June 2023

Accepted: 08th July 2023

Online: 09th July 2023

KEY WORDS

Globalashuv, Moliyaviy xavfsizlik, islohot, rivojlanish, xalqaro standartlar, moliyaviy natijalar.

ABSTRACT

Bugungi global iqtisodiy islohotlar davrida davlat moliyasini, shu jumladan davlat byudjetini boshqarishda moliyaviy nazorat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarining moliya-xo'jalik faoliyati ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari keng yoritib berilgan. Mamlakatimizdagi byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini yanada rivojlantirishda davlat moliyaviy nazoratining o'рни va ahamiyatini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2022-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar sohalar bo'yicha keltirilgan.

O'zbekiston Prezidenti 2017-yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti hamda xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi¹. Jumladan, uchinchi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan harakat strategiyasining 3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda, xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni



Albatta, bunday ustuvor vazifalardan davlat byudjeti daromadlar va xarajatlari, davlat byudjet ijrosi kassa ijrosini to'g'ri shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Bunday masalalarni ijobiy hal qilishda byudjet hisobini zamon talablari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda aksionerlar va boshqa foydalanuvchilar uchun tayyorlanayotgan moliyaviy hisobotlarda mamlakatdan mamlakatga o'tib borayotgan, ayrim hollarda bir mamlakatdagina foydalaniladigan buxgalteriya tamoyillari hamda qoidalari ishlatilmoqda. Bunday holatlarda buxgalteriya hisobotlarida taqqoslanuvchanlik yetishmasligi mumkin. Ushbu holatning noqulayligi shundaki, moliyaviy hisobotdan foydalanadigan investitsion tahlilchilar va boshqa foydalanuvchilar hisobotni tahlil qilish jarayonida uning turli standartlarga binoan tuzilganligi tufayli qo'shimcha xarajatlar qilishiga to'g'ri keladi. Ular hisobotlar interpretatsiyasida chalkashliklarga duch kelishlari ham mumkin.

Ushbu jarayon bilan bog'liq holda kapitalning jahon bozorida samarali raqobat yomonlashishi, kompaniyalar esa, kapitalni saqlash bo'yicha yuqori sarf-xarajatlarni o'z zimmlariga olishlariga to'g'ri keladi. Eng asosiysi, turli mamlakatlar uchun turlicha foyda miqdori ko'rsatilishi oqibatida buxgalteriya hisobotlariga ishonch yo'qoladi. Hisobotlarning xalqaro miqyosdagi turli tumanligi quyidagilarga olib keladi:

Moliyaviy hisobotlarni tuzishga ketadigan xarajatlarning mo'ljaldan yuqori darajada bo'lishi – chunki transnatsional kompaniyalar o'z faoliyatlari haqida turli mamlakatlar uchun turlicha hisobotlar tuzishga majbur bo'ladilar;

Tijorat kompaniyalari turli mamlakatlardagi faoliyatlari moliyaviy natijalarini baholash uchun yagona tizimga ega bo'lish ehtiyoji tug'iladi.

Kompaniyalar, bundan tashqari, ularning tashqi hisobotlari faoliyatni baholashning ichki baholashlariga mos tushishlarini ham xohlaydilar. Bu ikki maqsadga erishish esa, turli mamlakatlardagi hisobotlar turlicha bo'lgani holda juda mushkul hisoblanadi.

Shuningdek, byudjet tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobi va hisobotlarni tuzishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Jumladan, moliyaviy natijalarni shakllantirish va ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish bugungi kunda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalar deganda - tashkilotning barcha daromadlari (tushumlari, byudjet mablag'lari bo'yicha g'aznachilik orqali amalga oshirgan kassa xarajatlari) va hisoblangan barcha haqiqiy xarajatlarining o'zaro solishtirilishi (ayrilishi) natijasida kelib chiqadigan aktivning sof qiymatidir.

Boshqacha qilib aytganda, byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijasi bu tashkilotning barcha aktivlari (nomoliyaviy aktivlari, moliyaviy aktivlari va debitorlari) dan uning majburiyatlarini (kreditorlik qarzlari) ayirmasi natijasida hosil bo'ladigan aktivning sof qiymati.

Byudjet tashkilotlarining daromadlari bu aktivning sof qiymatini (moliyaviy natijani) oshishiga sabab bo'luvchi tashkilot aktivlarini oshishi yoki uning majburiyatlarini kamayishidir. Buni quyidagi holatlar bo'yicha asoslash mumkin, jumladan, byudjet tashkilotlariga homiylik mablag'larini kelib tushishi natijasida uning aktivlari (moliyaviy aktivlari) ya'ni, tashkilotning moliyaviy aktivlari (pul mablag'lari) ko'payadi. Ushbu holat buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv bilan rasmiylashtiriladi: Dt 112- "Byudjet



tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari" hisobvarag'i, Kt 262- "Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlar" hisob varaqa.

Tashkilotning majburiyatlarini kamayishi esa, bunda byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga yuzaga kelgan deponent qilingan qarzining talab qilish muddati tugashi munosabati bilan tashkilot daromadlariga hisoblanadi. Jumladan, amaldagi qonunchilikka muvofiq, byudjet tashkilotlarida talab qilish muddati tugagan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga yuzaga kelgan deponent qilingan ish haqi yoki boshqa to'lovlar bo'yicha qarzlar byudjet tashkilotining byudjetdan tashqari daromadlari sifatida tan olinadi. Ya'ni byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga yuzaga kelgan deponent qilingan qarzlar hisobdan chiqarilganda buxgalteriya hisobida (agarda mazkur qarzdorlik byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan yuzaga kelgan bo'lsa), Dt 177- "Deponentlangan to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar" hisobvarg'i, Kt 262- "Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlar" hisobvaraqa kabi yozuv bilan rasiylashtiriladi.

Byudjet tashkilotlarining xarajatlari bu aktivning sof qiymatini (moliyaviy natijani) kamayishiga sabab bo'luvchi tashkilot aktivlarining kamayishi yoki uning majburiyatlarini oshishidir. Masalan, byudjet tashkilotining asosiy vositalariga eskirish hisoblash natijasida tashkilotning nomoliyaviy aktivlari (asosiy vositalari) ning qoldiq qiymati kamayadi (asosiy vositani sotib olinish manbasidan kelib chiqqan holda). Dt 231, 241, 251, 261 yoki 271 joriy yilga moliyaviy natijalar bo'yicha qilingan haqiqiy xarajatlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar, Kt 020-029 - "Asosiy vositalarning eskirishi" subschyotlarning tegishlisi. Bunda, tashkilotning nomoliyaviy aktivlari (asosiy vositalari qoldiq qiymati) kamaydi. Demak, buxgalteriya hisobida 231, 241, 251, 261 yoki 271 subschyotlar xarajatlar sifatida tan olinadi.

Byudjet tashkiloti tomonidan xodimlarga ish haqi hisoblanganda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv rasmiylashtiriladi: Dt 231- "Byudjet mablag'lari bo'yicha haqiqiy xarajatlar" hisobvarag'i, Kt 173- "Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar" hisobvaraqa.


Byudjet tashkilotlarda moliyaviy natijalar daromadlarning turlari bo'yicha alohida aniqlanadi, ya'ni: byudjet mablag'lari bo'yicha; to'lovlarni mahsus turlariga doir hisoblashuvlar bo'yicha; ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha; byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha; byudjet tashkilotining boshqa daromadlar bo'yicha.

Shunday qilib, byudjet tashkilotlarda moliyaviy natijalarni daromadlarning turlari bo'yicha alohida shakllantirish, ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirishga va hisobotlarning tuzilishida aniqlikni ta'minlaydi.

Moliyaviy faoliyatlar bo'yicha moliyaviy natijalar bo'yicha umumlashtirilib yakuniy moliyaviy natijalar aniqlanadi. Yakuniy moliyaviy natija - bu budjet tashkilotining hisobot yili yakunida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi bo'yicha daromadlar bilan haqiqiy xarajatlar o'rtasida yuzaga keladigan farqidir. Shuningdek budjet tashkilotining yakuniy moliyaviy natijasi barcha aktivlarining (nomoliyaviy aktivlari, moliyaviy aktivlari va debitorlari) umumiy summasidan uning majburiyatlarini (kreditorlik qarzlarini) ayirmasiga tengdir. Budjet tashkilot faoliyatining yakuniy bo'yicha moliyaviy natijalari «Yakuniy moliyaviy natijalar» schyotida aks ettiriladi. Yil yakunlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalarini hisobga oluvchi subschyotlarda umumiy xolda kredit qoldig'ining qolishi

tashkilotning barcha aktivlarini (nomoliyaviy aktivlari, moliyaviy aktivlari, debitorlar) umumiy summasi tashkilot majburiyatlarining umumiy summasidan ortiq bo'lganligini, debet qoldig'ining qolishi esa tashkilotning umumiy majburiyatlari summasi uning barcha aktivlari (moliyaviy va nomoliyaviy aktivlari, debitorlar) umumiy summasidan ortib ketganligini bildiradi².

Moliyaviy natijalar hisoboti faoliyati choraklik, yillik tartibida hisoblanadi. Barcha hisobotlar tartibi ochiq tizim orqali ifodalanadi. Budget tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobining shakllanishi quyidagi tartibda bo'ladi:



1.1-Chizma

Budjetlarni tuzish, ijrosini amalga oshirish va nazorat qilish mablag'larni samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababdan budget ijrosi jarayonida ishonchli axborotga extiyoj vujudga keladi. Bunda, buxgalteriya hisobi eng asosiy axborot manbai bo'lib, uni tashkil etish iqtisodiy jihatdan muhim hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlar sharoitida budget mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budget tashkilotlarini moliyalashtirishni samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Budget tashkilotlari budget mablag'larining asosiy iste'molchisi hisoblanib, Davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budgetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budget tashkiloti qonunchilikka muvofiq budgetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi

² BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI Tabayev Azamat Zaripbayevich1 dotsent



2022- yil yanvar- fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	mln. so'm	
	<i>Foyda, zarar (+, -)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jami	3 219 023,5	69,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	20870,6	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	3 096 746,1	67,7
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	98 635,3	102,0
Qurilish	648,6	193,7
Savdo	1 043,7	-
Tashish va saqlash	2 026,1	-
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-2 668,2	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	1 018,5	111,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-209,2	-
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	76,2	100,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3,2	188,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,6	2,6 m.
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	826,0	2,8 m.

Yuqoridagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra 2022-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar sohalar bo'yicha keltirilgan³. Ushbu jadvalda keltirilishicha, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasi bo'yicha foyda va zarari 2022-yilda 20870.6 mln so'mni tashkil etdi. Ishlab chiqaradigan sanoat bo'yicha esa ushbu yilda 3096746.1 mln.so'm, o'sish sur'ati esa 67.7% ni tashkil etgan. Ushbu keltirilgan sohalar bo'yicha pastroq ko'rsatkichda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi foyda hamda zarari 3.2 mln.so'mni o'sish sur'ati esa 188.2% ni tashkil etgan. Bugungi global iqtisodiy islohotlar davrida davlat moliyasini, shu jumladan davlat byudjetini boshqarishda moliyaviy nazorat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizli, Bunda moliyaviy intizomini mustahkamlash uchun amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yo'nalishini byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish, byudjet intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish; byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish va byudjet mablag'laridan foydalanishda mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun shartsharoitlar yaratish; byudjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish, ular faoliyatining samaradorligini oshirish va kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish uchun shartsharoitlar yaratish kabilar belgilamoqda.

³ O'zbekiston Respublikasi huzuridagi statistika agentligi uzstat.uz



References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni
2. BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI Tabayev Azamat Zaripbayevich1 dotsent
3. O'zbekiston Respublikasi huzuridagi statistika agentligi uzstat.uz